



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 71-203-32-23, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz



15.02.2023-yil

2/24-4/7-97-son

Oliy ta‘lim muassasalari
rektorlari (direktorlari)
(ro‘yxat bo‘yicha)

Nusxasi: Bilim va malakalarni baholash
agentligi

Britaniya Kengashining O‘zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan oliy ta‘lim sohasida bir necha loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu loyihalar doirasida joriy yilning 10-mart kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida “New Directions Series in English Language Assessment” mavzusida konferensiya tashkil qilinishi rejalashtirilgan.

Mazkur konferensiya mamlakatimizda ikkinchi marta tashkil qilinayotgan bo‘lib, uni o‘tkazishdan asosiy maqsad respublikada ingliz tilini sifatli o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, konferensiya davomida oliy ta‘lim sohasi vakillari hamda ishtirokchilarga tillarni o‘qitish va bilimlarni baholash bo‘yicha milliy va xalqaro darajalarda tajriba almashishlari uchun sharoit yaratish, shuningdek, ularni sohada mavjud muammo va kamchiliklarga yechim topish va takliflar bildirishga rag‘batlantirishdan iborat.

Ushbu konferensiyada mamlakatimizdan oliy ta‘lim muassasalari vakillari va jamoalari hamda Buyuk Britaniyadan soha mutaxassislari qatnashishi taklif qilingan (ro‘yxat ilova qilingan). Tashkil qilinayotgan mazkur konferensiya to‘g‘risida <https://www.britishcouncil.uz/en/proerammes/newdirections-series-2023> saytidan batafsil ma‘lumot olishingiz mumkin.

Ushbu konferensiya O‘zbekistonda ingliz tilini o‘qitish va chet tillarini o‘qitishda bilimlarni baholash kabi yo‘nalishlarni rivojlantirishga qaratilganini inobatga olib, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ilovada ro‘yxati keltirilgan OTMlar vakillarining unda ishtirok etishiga e‘tiroz bildirmaydi.

Ilova: 9 b.

**Vazirning
birinchi o‘rinbosari**



K. Karimov

Олий таълим муассасалари рўйхати

1. Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
2. Ўзбекистон миллий университети
3. Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети
4. Тошкент давлат техника университети
5. Тошкент давлат иқтисодиёт университети
6. Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти
7. Тошкент давлат шарқшунослик университети
8. Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети
9. Андижон давлат университети
10. Андижон давлат чет тиллари институти
11. Бухоро давлат университети
12. Қорақалпоқ давлат университети
13. Денов тадбиркорлик ва педагогика институти
14. Самарқанд давлат чет тиллар институти
15. Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
16. Термиз давлат университети
17. Фарғона давлат университети
18. Урганч давлат университети
19. Навоий давлат педагогика институти
20. Нукус давлат педагогика институти
21. Жиззах давлат педагогика университети
22. Қўқон давлат педагогика институти
23. “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети
24. Тошкент тиббиёт академияси
25. Тошкент педиатрия тиббиёт институти
26. Андижон давлат тиббиёт институти
27. Бухоро давлат тиббиёт институти

28. Тошкент давлат юридик университети
29. Тошкент давлат транспорт университети
30. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети
31. Ўзбекистон халқаро ислом академияси
32. Тошкент кимё халқаро университети
33. TEAM университети
34. Тошкент шаҳридаги Британия менежмент университети
35. “Tashkent International University of Education” халқаро университети
36. “CAMBRIDGE INTERNATIONAL” университети
37. Profi university
38. Халқаро нордик университети
39. Самарқанд халқаро технология университети
40. Тошкент Халқаро Вестминстер Университети
41. Тошкент шаҳридаги Сингапур Менежментни ривожлантириш институти
42. Тошкент шаҳридаги Инха университети
43. “Россия Федерацияси Ташқи ишлар вазирлигининг Москва давлат халқаро муносабатлар институти (университети)” Федерал давлат автоном олий таълим муассасасининг Тошкент шаҳридаги филиали (Россия)
44. Халқаро қишлоқ хўжалиги университети